



SURROGAT ONALIK MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.

Jamshid Abdullayev

mustaqil izlanuvchisi, "Adliya a'lochisi"

Jamoat xavfsizligi universiteti

jamshidb003fb@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7034552>

ARTICLE INFO

Received: 01st August 2022

Accepted: 03rd August 2022

Online: 05th August 2022

KEY WORDS

Surrogat onalik munosabatlarini tartibga solish, surrogat onalik shartnomasi bo'yicha maxfiylikni saqlanishi, qo'shimcha tibbiyot ko'rigidan o'tish.

ABSTRACT

Mazkur maqolada surrogat onalik munosabatlarini tartibga solishni takomillashtirish masalalariga oid yondashuvlar bayon qilingan. Shuningdek, surrogat onalik to'g'risidagi shartnoma bo'yicha taraflarni huquq va majburiyatlarining xususiyatlari bilan bog'liq jihatlari, shuningdek, surrogat onalik dasturining huquqiy tartibga solish masalalari qamrab olinadi

Bosh qomusimizda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi e'tirof etiladi. Kishilik jamiyati taraqqiyotida barcha davrlarda oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash muhim hisoblangan. Oilaviy totuvlikni ta'minlash, surrogat onalik munosabatini tartibga solishning huquqiy asosi hamda mazmun mohiyatini yoritish asosli hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, barcha oilalarni barpo etishda asosiy maqsad sifatida bolalarning tug'ilishi va tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Ko'pchilik uchun mazkur maqsad hayotda eng muhim masala bo'lib, odamlar uchun kundalik hayotda farzand ko'rish bilan bog'liq barcha axloqiy va huquqiy me'yorlarga zid kelishi mumkin bo'lgan eng oddiy qadriyatlarga ham sodiq qolinadi.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, ayni paytda qonuniy nikohdagi er va xotinlarning 20 foizi (har beshtadan bittasi) o'zlari tabiiy ravishda farzandlariga ega bo'lish imkoniga ega emas ekanligi qayd qilinadi. Aksariyat holatlarda farzand ko'rish imkoniyati cheklangan oilalardagi er va xotinlar garchi ko'p mamlakatlarda surrogat onalik shartnomasi qonun yo'li bilan tartibga solinmagan bo'lsa-da, surrogat onalar xizmatiga murojaat qilishi kuzatiladi. Natijada, amaliyotda surrogat onalik munosabatlari bilan bog'liq bir qancha muammolar vujudga keladi. Shuning uchun surrogat onalik masalasini qonuniy tartibga solish muhim hisoblanadi. Bizningcha, dastlab bu o'rinda surrogat onalik shartnomasiga mualliflik ta'rifini berilishi maqsadga muvofiq.



Surrogat onalik shartnomasi deb bir taraf surrogat ona, ikkinchi taraf genetik ota-ona va uchinchi taraf sifatida tibbiyot tashkilot o'rtasida genetik ota-ona urug'idan sog'lom farzandni surrogat onaning tanasi a'zosida yetishtirib, dunyoga keltirishga qaratilgan kelishuvga aytiladi.

Ushbu shartnoma bo'yicha surrogat ona majburiyat sifatida genetik ota-onaning hujayrasidan hosil bo'lgan farzandni tanasida katta qilib, dunyoga keltirish majburiyatini oladi.

Bunda genetik ota-ona belgilangan haqni to'lash majburiyatini olsa, tibbiyot tashkiloti farzandni sog'lom rivojlanishi va dunyoga keltirilishi majburiyatini oladi.

Demak, surrogat onalik shartnomasi bo'yicha har bir taraf o'z majburiyatlarini to'liq bajarishi lozim.

Endi bevosita surrogat onalik shartnomasi bilan bog'liq ba'zi nazariy masalalarga to'xtalib o'tamiz. MDH davlatlari qonunchiligida surrogat onalik shartnomasining yozma shakli uchun faqat bitta talab mavjud bo'lib, bu embrionni implantatsiya qilish uchun surrogat ona sifatida xizmat ko'rsatmoqchi bo'lgan rasmiy turmush qurgan ayol erining roziligi bo'lishi lozimligidir. Ammo e'tiborli jihati shundaki, surrogat onalik shartnomasini surrogat ona va genetik ota-onalar o'rtasida tuzishni amaldagi qonunchilik taqiqlamaydi.

Surrogat onalik munosabatlari bilan maxsus shug'ullangan mutaxassis tadqiqotchilar surrogat ona va genetik ota-onalar o'rtasida ikki tomonlama surrogat onalik shartnomasini tuzishni qat'iy talab qiladilar. Bundan tashqari, "Muvaffaqiyatli kurs, shuningdek, surrogatlik dasturining natijasi yuqori sifatli va malakali tuzilgan shartnomaga bog'liq degan fikr ham mavjud."¹ Bizningcha, shartnomaning

barcha shartlari qanchalik to'liq ko'rsatilgan bo'lsa, tomonlarning huquqlarini suiiste'mol qilish ehtimoli shuncha kamroq bo'ladi.

Izchil tahlil jarayonida shuni qayd etish lozimki, surrogat onalik munosabatlari doirasida huquqiy munosabatni amaliyotdagi ko'rinishlarini tahlil etish muhim sanaladi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, mazkur masala haqida MDH doirasida fikr yuritilganda Rossiya Federatsiyasidagi "Rosjurconsulting" kompaniyasini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. "Rosjurconsulting" bosh direktori K.N.Sitnev bir paytning o'zida Rossiya inson ko'payish assotsiatsiyasi, Amerika reproduktiv tibbiyot jamiyati a'zosi, shuningdek, Yevropa inson ko'payish va embriologiya jamiyatining yuridik eksperti hisoblanib, K.N.Sitnev surrogat onalik shartnomasi bilan bog'liq munosabatlarda vujudga kelayotgan muammolarni 15 yildan ortiq tadqiq etib kelmoqda. Yana bir jihat, "Rosjurconsulting" kompaniyasi Rossiya Federatsiyasida surrogat onalik shartnomasi loyihasini ishlab chiquvchi, huquqiy yordam va shaxsiylashtirilgan surrogatlik dasturlariga ixtisoslashgan birinchi yuridik firma hisoblanadi.

¹ Митрякова Е. С. Правовое регулирование суррогатного материнства. 2006.



Ko'p yillik amaliyot davomida surrogat onalik shartnomasi loyihasini tuzish bilan shug'ullanib kelayotgan "Rosjurconsulting" kompaniyasi advokatlarining fikriga ko'ra, mazkur shartnomalarda tomonlarning huquq va majburiyatlariga, surrogat ona bolani genetik ota-onaga o'tkazishdan bosh tortgan taqdirda uning moddiy javobgarligi masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday holda, surrogat ona genetik ota-onalarga IVF(ekstrakorporal urug'lantirishsiz) bilan bog'liq xarajatlarni qoplash majburiyatini oladi. Ushbu qoidani mamlakatimiz fuqarolik qonunchiligi bilan bog'laydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 707-moddasi 2-bandiga ko'ra, ijrochi shartnoma bekor qilinishi tufayli buyurtmachiga yetkazilgan zararining hammasini to'lash sharti bilangina haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasini bekor qilishni talab qilishga haqli deb belgilangan.

Fikrimizcha, surrogat onalik munosabatini tartibga soluvchi huquqiy asos sifatida surrogat onalik shartnomasining huquqiy tabiati, shakli, tuzish tartibini izchil tahlil etish bilan birga mazkur shartnomaning mazmunini ham yoritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Surrogat onalik shartnomasi O'zbekiston qonunchiligi uchun yangi va eng muhimi, o'ziga xos alohida xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli, yuqorida ma'lumot berilganidek, u hozirgi vaqtda mamlakatimizda normativ konsolidatsiya qilinmagan.

Mavzu doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlarimizdan kelib chiqib, qonun hujjatlarida surrogat onalik to'g'risidagi shartnoma bo'yicha mustahkamlangan talablar yo'qligi sababli, amaliyotda surrogat ona hamda genetik ota-onalar

tomonidan ko'plab qonunga zid holatlar amalga oshirilayotganligi holati uchraydi.

Shu munosabat bilan surrogat onalik to'g'risidagi shartnoma bo'yicha taraflarning huquq va majburiyatlarini, shuningdek, ularga rioya qilmaganlik uchun javobgarlikni tartibga solish nihoyatda muhimdir.

Surrogatlik dasturi ko'plab xavf-xatarlarni o'z ichiga olganligi sababli, birinchi navbatda, shartnoma shartnoma taraflarini himoya qilishga, shuningdek, tug'ilmagan bolaning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan majburiyatlarni o'z ichiga olishi kerak. Masalan, tug'ilmagan bolani uning ruhiy salomatligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan uchinchi shaxslardan ushbu ma'lumotlar ta'siridan himoya qilish uchun zarur bo'lgan surrogat onalik shartnomasi bo'yicha maxfiylikni saqlash majburiyati muhim hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish asoslari bo'yicha, YRT(yordamchi reproduktiv texnologiya)ni qo'llash tartibi, kontrendikatsiyalar va ulardan foydalanish cheklovlari asosida nazarda tutilgan barcha tibbiy ko'riklardan o'tish majburiyatini olishlari kerak.

Surrogat ona, agar u rasmiy nikohda bo'lsa, surrogat onalik dasturini o'tkazish uchun turmush o'rtog'ining yozma roziligini taqdim etishi shart. Surrogat onalik dasturi doirasida surrogat ona homiladorlik davrida sog'lom turmush tarziga rioya qilish, qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan barcha tibbiyot ko'riklaridan o'z vaqtida o'tish (agar tomonlar shartnomada qonun hujjatlarida majburiy ravishda belgilanmagan qo'shimcha tibbiyot ko'riklarini nazarda tutgan bo'lsa), shifokorning barcha



tavsiyalariga amal qilish kabi majburiyatlarni oladi.

Genetik ota-onalarga ham tomonlar qo'shimcha tibbiyot ko'rigidan o'tish to'g'risida kelishib olgan bo'lsa, qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan tibbiyot ko'rigidan o'tish bo'yicha bir xil majburiyat yuklanishi kerak.

Hozirgi vaqtda surrogat onaning bolani tug'ilgandan keyin biologik ota-onaga o'tkazish majburiyati qonun bilan mustahkamlanmagan. Mazkur masalani qonunchilik darajasida tartibga solish va surrogat onani bolani topshirishga, shuningdek, genetik ota-onalarni surrogat onadan bolani qabul qilishga majburiy yo'sinda amal qilinishini joriy etish lozim. "Genetik ota-onalarning onalik va otalikni belgilash huquqini, shuningdek, agar genetik ota-onalar bolani qabul qilishdan bosh tortsa, surrogat onaning onalikni belgilash huquqini qonun bilan ta'minlash kerak."²

Shuningdek, agar surrogat onalik dasturi surrogat onaning aybisiz amalga oshmasa va bu tibbiyot xulosa bilan tasdiqlangan bo'lsa, genetik ota-onalar unga haq to'lashlari hamda sog'lig'ini tiklash bilan bog'liq xarajatlarni qoplashlari shart. Agar homiladorlikning salbiy natijasi surrogat onaning aybi bilan ro'y bergan bo'lsa (masalan, u shartnoma shartlarini buzgan va tibbiyot ko'rigidan o'tmagan bo'lsa yoki surrogat ona shifokor tavsiyalariga amal qilmagan bo'lsa, shuningdek, homiladorlik qoidalarini buzishi natijasida bola tushgan bo'lsa) surrogat ona genetik ota-onalarga shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish natijasida qilgan xarajatlarini

qoplashi kerak.³ Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan majburiyatlarni qoida sifatida belgilash zarur.

Surrogat onalik munosabatlarini tartibga solishni takomillashtirish masalalari mavzusini tadqiq etib quyidagi xulosalarga kelish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, genetik ota-onalar surrogat onaga shartnomada belgilangan doirada yordam ko'rsatishi shart. Agar genetik ota-onalar ushbu majburiyatlarni bajarmasa, surrogat ona o'z majburiyatlarini genetik ota-onalar tomonidan lozim darajada bajarmaganligi sababli unga yetkazilgan barcha zararlarining o'rnini qoplashni yoki shartnoma bo'yicha ish haqini mutanosib ravishda oshirishni talab qilishga haqli. Agar genetik ota-onalar surrogat ona o'ziga berilgan mablag'larni boshqa maqsadlarda ishlatayotganini bilib qolsa, ular ushbu miqdorni shartnomada nazarda tutilgan mukofotdan ushlab qolishga haqli. Surrogat ona genetik ota-onalarni homiladorlikning normal kechishiga tahdid soladigan har qanday xavflar haqida ogohlantirishi shart, aks holda surrogat ona ushbu holatlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplashni talab qilish huquqidan mahrum bo'ladi. Ushbu shartnoma doirasida mutaxassis olimlar fikricha, shartli ravishda zaif taraf bo'lgan surrogat onani himoya qilish uchun genetik ota-onalarga surrogat onalik shartnomasini bir tomonlama bekor qilishni qonuniy ravishda taqiqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki aynan surrogat ona bolaning tug'ilishi, sog'lom bo'lishi va o'zining salomatligi uchun xavfli bo'lgan

² Флягин А.А. Правовой статус родителей при суррогатном материнстве // Доступ из СПС «КонсультантПлюс».

³ Афанасьева И.В., Пароконная К.Д. Правовые проблемы суррогатного материнства // Доступ из СПС «КонсультантПлюс».



holda to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Ikkinchidan, ba'zan, kamdan-kam hollarda, amalda, surrogat ona bolani genetik ota-onaga o'tkazishdan bosh tortgan holatlar yuzaga keladi. Bunday xatti-harakatlari bilan surrogat ona surrogatlik shartnomasidan kelib chiqadigan bolani genetik ota-onaga o'tkazish majburiyatini bajarmaydi. Bunday hollarda surrogat onaning xatti-harakatlari shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan bosh tortish sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak, ya'ni surrogat ona genetik ota-onalarning surrogatlik dasturidagi surrogatlikni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarini to'liq qoplashi shart. Mazkur masala tadqiqotchi O.K.Ayvar tomonidan "bunday vaziyatlarda ma'naviy zararni qoplash qoidalarini fuqarolik javobgarligi choralaridan biri sifatida qo'llash mumkin, chunki genetik ota-onalar eng qiyin hissiy tajribalarni boshdan kechirishadi. Bu genetik ota-onalar uchun qo'shimcha kafolat bo'lib xizmat qiladi".⁴ - deb ta'kidlanadi.

Bundan tashqari shartnomada tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarilishiga to'sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelishini oldindan ko'ra olmagan hollarda shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadigan shartlarni ham belgilash kerak. (masalan, favqulodda vaziyatlar va boshqalar).⁵

Uchinchidan, fikrimizcha O'zbekiston Respublikasida amaliyotda mavjud, ammo mamlakatimizda tartibga solinmagan surrogat onalik bilan bog'liq barcha masalalarni qamrab oluvchi milliy qonunchiligimizni takomillashtirish lozim. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, surrogat onalik shartnomasi taraflarning huquq va majburiyatlarini himoya qilish uchun qonuniy tartibga solinishi kerak. Negaki, mazkur sohada tartibga solinishi lozim bo'lgan bir qancha bo'shliqlar va kamchiliklar mavjud.

Fikrimizcha, mamlakatimizda surrogat onalik sohasidagi munosabatlarni, shu jumladan surrogat onalik to'g'risidagi shartnomani tartibga soluvchi mustaqil qonun qabul qilish zarurati tug'ilib, bunda tomonlarning ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlari, shuningdek, tomonlarning majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganliklari uchun javobgarliklari belgilab qo'yilgan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

⁴ Айвар Л.К. Правовая защита суррогатного материнства // Адвокат. 2006. № 3. С. 13-19.

⁵ Борисова Т.Е. Ответственность по договору суррогатного материнства // Законность. 2011. № 10. С. 47-50.



References:

1. Афанасьева И.В., Пароконная К.д. Правовые проблемы суррогатного материнства // Доступ из СПС «КонсультантПлюс».
2. Айвар Л.К. Правовая защита суррогатного материнства // Адвокат. 2006. № 3. С. 13-19.
3. Борисова Т.Е. Ответственность по договору суррогатного материнства // Законность. 2011. № 10. С. 47-50.
4. Флягин А.А. Правовой статус родителей при суррогатном материнстве // Доступ из СПС «КонсультантПлюс».
5. Митрякова Е. С. Правовое регулирование суррогатного материнства. 2006.